

## VOLUME-2, ISSUE-1

### O'TKIR KORONAR SINDROMLI BEMORLARDA TOJ ARTERIYALAR SHIKASTLANISHLARINING ANGIOGRAFIK XUSUSIYATLARINING KARDIOVASKULYAR XAVF OMILLARIGA BOG'LIQLIGI.

**Avganbekova G., Xodjanova Sh.I.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O`zbekiston

**Dolzarbliyi:** O'tkir koronar sindrom (O`KS) butun dunyo bo'ylab o'limning asosiy sabablaridan biri bo'lib inson xayoti uchun xavf tug'dirib kelmoqda. Bu tadqiqotda o'tkir koronar sindrom bilan og'rigan bemorlarning bir zararli odatlar va kardiovaskulyar xavf omillari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlab beruvchi ishlar olib borilgan.

**Tadqiqod maqsadi:** Ushbu tadqiqotning maqsadi o'tkir koronar sindrom bilan og'rigan bemorlarda koronar arteriya stenozining kengayishi va xavf omillarining ta'sirini zararli odatlar ( chekish, xolesteringa boy ovqatlar iste'mol qilish, oilasida yurak qon tomir kasalliklari bilan kasallanganlarning bo'lishi) bog'liq holda Gensini shkalasiga asoslangan holda baholashdan iborat.

**Material va metodlar:** O'tkir koronar sindrom bilan kelgan jami 100 bemordan 52 bemor 32 erkak va 20 ayol (o'rtacha yoshi =  $59,3 \pm 10,2$ ) koronar angiografiyadan o'tkazildi va yakuniy tahlilga kirish uchun bizning mezonlarga javob berdi.

**Natija:** Ushbu tahlilda 23 ta bemor (45.1%) nostabil stenokardiya va 19 (37.2%) miokard infarkti bilan murojaat qildi. Ushbu tadqiqotda qatnashgan aholining 25.6% va 11,9% mos ravishda tamaki mahsulotlari chekuvchilar va xolesteringa boy taomlar iste'mol qiluvchilar bo'lган. Bundan tashqari, oilasida yurak qon tomir kasalliklari bilan kasallanganlarning bo'lishi eng past xavfga sabab bo'luvchi omil sifatida aniqlandi. Gensini ballining o'rtacha ko'rsatkichi 50 (25 ; 88) ni tashkil etdi va erkaklarda aniqlangan ko'rsatkich miqdori ayollarga qaraganda yuqoriyoq (mos ravishda 53 va 42). Eng kuchli aloqalar miokard infarkti ( 95%  $P<0,001$  ) va jins (erkak, 95%;  $P<0,001$  ) orasida aniqlandi. Shuningdek tamaki chekish (95P=0,752) va xolesteringa boy ovqatlar iste'mol qilish ( 95%  $P=0,199$  ) Gensini shkalasining o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi.

**Xulosa:** Olib borilgan tadqiqod natijalari shuni ko'rsatdiki, bizning o'rganilayotgan aholimiz orasida koronar arteriya kasalligining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi yuqori xavf omillari yoshi, jinsi, miokard infarkti ekanligi aniqlandi. Ammo chekish va xolesteringa boy ovqatlar iste'mol qilish koronar arteriyaning zararlanishiga sabab bo'luvchi mezoni sifatida Gensini balini ma'lum bir miqdorda oshirdi. kasallik. Koronar arteriya kasalligining og'irligini baholashda tana vaznining yuqori bo'lishini ham hisobga olish lozim va kerakli natijani olish keyingi tadqiqotlarni talab qiladi.

## VOLUME-2, ISSUE-1

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC8217186/#> „ Relationship between the Severity of Coronary Artery Disease and Cardiovascular Risk Factors in Acute Coronary Syndrome: Based on Tehran Heart Center’s Data Registry”
2. Alberti KGMM, Zimmet PZ. Definition, diagnosis and classification of diabetes mellitus and its complications. Part 1: diagnosis and classification of diabetes mellitus. Provisional report of a WHO consultation. *Diabetic medicine*. 1998;15:539–553.
3. Leening MJ, Ferker BS, Steyerberg EW, Kavousi M, Deckers JW, Nieboer D, Heeringa J, Portegies ML, Hofman A, Ikram MA, Hunink MG, Franco OH, Stricker BH, Witteman JC, Roos-Hesselink JW. Sex differences in lifetime risk and first manifestation of cardiovascular disease: prospective population based cohort study. *BMJ*. 2014;349:g5992.